

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.72.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDOYAROVA E'TIBOR AXATOVNA**

**Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) IONLARINING FTORLI TETRAKETON  
HOSILALARI BILAN KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI,  
TUZILISHI, XOSSALARI**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)**

**Xudoyarova E'tibor Axatovna**

Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlarining ftorli tetraketon hosilalari bilan kompleks birikmalari sintezi, tuzilishi, xossalari .....3

**Худоярова Эътибор Ахатовна**

Синтез, строение, свойства комплексных соединений ионов Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) с производными фторированных тетракетонов ..... 21

**Xudoyarova E'tibor**

Synthesis, structure, properties of complex compounds of tetracarbonyl derivatives with Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II). .....39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 43

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.72.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDOYAROVA E'TIBOR AXATOVNA**

**Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) IONLARINING FTORLI TETRAKETON  
HOSILALARI BILAN KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI,  
TUZILISHI, XOSSALARI**

**02.00.01 – Noorganik kimyo**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/K616 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz.) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Umarov Baqo Bafoyevich**

kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Daminova Shaxlo Sharipovna**

kimyo fanlari doktori, professor

**Mardonov O'ktam Mardonovich**

kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.72.01 raqamli Ilmiy kengashning «12» 05 2024-yil soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: +99865221-29-14; faks: +99865 221-26-12, e-mail: bsu\_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 1 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11 uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-26-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «4» 05 kuni tarqatildi.

(2024-yil «4» 05 dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**H.B. Do'stov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor  
**Q.G'. Avezov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD, dotsent  
**M.R. Amonov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda asosiy e'tibor sintetik komplekslar birikmalar sintez qilishda har xil hajmdagi o'rinbosarlar tutgan, tarmoqlangan tuzilishli ftorli o'rinbosarlar olish muammosiga qaratilgan. Ftorli birikmalarning ko'pchiligi o'zining xossalariга ko'ra yadro energetikasi, lazer texnikasi, kimyo sanoatida, qishloq xo'jaligi va tibbiyotda keng qo'llanilayapti. So'nggi yillarda kimyoviy texnologiyada ftororganik birikmalarning sintezidan ko'ra har xil ftorli polifunksional birikmalarning reaksiya qobiliyatini o'rganish va qo'llash uchun qulay bo'lgan murakkab tuzilishdagi molekullar yaratish usul va imkoniyatlariga hamda ftorli polifunksional, polidentat ligandlar sintezi, tuzilishi va xossalari ni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kompleks birikmalarning sintezi, xossalari ni aniqlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, metall birikmalaridan ayrim ionlarni kompleks hosil qilish usuli bilan ajratib olish, bu jarayonda ligandlarning selektivligini oshirish, tirik organizmlarda uchraydigan murakkab tuzilishdagi moddalar molekullari modellarini yaratish, ulardagi bioelementlarning ta'sirchanligini turli yo'nalishlarda o'zgartirish hozirda kimyogarlar oldida turgan muhim muammolardandir. Shunday moddalar qatoriga kiruvchi ftoralmashtangan  $\beta$ -diketonlar yuqori ekstragentlik xossasiga ega va ular gaz-suyuqlik xromatografiyasida samarali qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kimyo sanoatining yangi turdagi materiallar ishlab chiqarish yo'nalishida salmoqli natijalarga erishilmoqda. Innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish orqali sanoat ob'yektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"<sup>1</sup>gi farmonida mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada turli metall ionlarining kislota gidrazonlari bilan kompleks birikmalarini olish, olingan kompleks birikmalar asosida fungitsidlar va o'simliklar o'sishining stimulatorlarini yaratish ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-oktabrdagi PQ-3983-son «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsion jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805 son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 28-iyundagi PQ-295-son "Mis va noyob metallar xom ashyosini qayta ishlashning

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

texnologik zanjirlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nano-texnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijda aniq tarkibi va tuzilishdagi ligandlar ta'sirida turli metall ionlarini tanlab ekstraksiyalash, marganets, xrom, mis, nikel, rux kabi metallar ionlari komplekslarining katalitik va biologik faol xossalari bo'yicha tadqiqotlar S. Radi, J. Poly, H. Okamura, N. Hirayama, J. Wilson, J. Almida, R. Rettinari, V. Ingle kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi va hozirda davom ettirilyapti.

Koordinatsion birikmalar kimyosini rivojlantirishda rus olimlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Dastlab Sankt-Peterburgda L.A. Chugayev rahbarligida koordinatsion birikmalar kimyosi rivojlantirildi. Keyinchalik bu sohadagi ishlarni uning davomchilari I.N. Sherbakov, O.V. Konnik, L.D. Popov tomonidan rivojlantirildi. Kishinyovda N.V. Gerbeleu tomonidan komplekslarning templat sintezi tadqiqotlari olib borildi va rivojlantirildi. Kompleks birikmalarning magnitkimyoviy tadqiqotlari esa V.T. Kalinnikov, V.V. Minin, Gusev, S.I. Levchenko, M.K. Alaviya, S.I. Yakimovich, V.F. Shulgin, V.I. Zerova, V. Alekseyev, V.I. Saloutin, V.I. Filyakova, Ya.V. Burgart, D.L. Chijov, K.I. Pashkevich, P.A. Slepuxin, G.F. Maxayevalar tomonidan takomillashtirildi.

Respublikamizda organik ligandlar asosida komplekslar sintezi va tadqiqoti sohasidagi tadqiqotlarni amalga oshirish va rivojlantirish bo'yicha ko'zga ko'ringan olimlar, akad. N.A. Parpiyev, M.A. Azizov, H.T. Sharipovlarning hissasi beqiyosdir. Hozirgi kunda ularning shogirdlari B.B. Umarov, H.X. To'rayev, Sh.A. Kadirova, Z.Ch. Qodirova, Sh.Sh. Daminovalar bu ilmiy maktablar faoliyatini davom ettirib kelmoqdalar. V.G'. Yusupovning bir guruh shogirdlari tomonidan yangi polidentat ko'p funktsionali ligandlar, shuningdek ularning oraliq metall ionlari bilan komplekslari olindi, tuzilishi va xossalari o'rganildi. Ilmiy manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra,  $\beta$ -diketonlar va ftortutgan turli o'rinbosarlarini olish, organik ligandlar bilan oraliq metall ionlarining kompleks birikmalari sintezi, tarkibi, elektron tuzilishi, reaksiya qobiliyati, biologik xossalari bo'yicha dunyo miqyosida va respublikamizda ko'plab olimlar ilmiy faoliyatlarida chuqur o'rganilgan. Hozirda ham bu ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Shunga qaramasdan ftorli tetrakarbonil birikmalar, ularning hosilalari, va ular asosida oraliq metallar ionlari kompleks birikmalarning sintezi, tarkibi, tuzilishi, xossalari yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli, ftortutgan tetrakarbonil birikmalar olishning yangi usullarini yaratish, shu asosida polidentat ligandlarni sintez qilish, ulardan foydalanib, Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlari bilan turli kompleks birikmalarni sintez qilish dolzarb muammodir.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tabiiy va sintetik, organik, noorganik va koordinatsion birikmalar sintezi, tuzilishi, xossalari va tadqiqoti" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo`nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** ftor tutgan tetrakarbonil birikma va gidrazonli, karbazonli hosilalarini sintez qilish, ularning oraliq metallar ionlari bilan komplekslarini olish, ularning tarkibi, tuzilishi va xossalarini, biologik faolligi va ishlatilish sohalarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** ftor tutgan tetrakarbonil birikma, u bilan kislota gidrazidlarining kondensatlanish reaksiyalarini amalga oshirish va olingan mahsulotlarning turli tautomer shakllarini aniqlash;

sintez qilingan ftorli tetrakarbonil birikma hosilalarining Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) komplekslarini sintez qilib, ularning tarkibi, tuzilishi va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari bilan o'rganish;

yangi sintez qilingan moddalarning fazoviy tuzilishini takomillashtirilgan kvant-kimyoviy hisoblash (KKH) dasturlaridan foydalanib, nazariy jihatdan o'rganish;

sintez qilingan moddalarning biologik faolligini o'simliklarda uchraydigan ayrim zamburug'larga ta'sirini qiyosiy o'rganish;

sintez qilingan ligandlarni kimyo sanoati texnologik jarayonlari oqava suvlari tarkibidagi og'ir metall ionlarini cho'ktirish, sifat va miqdoriy analizida qo'llash imkoniyatlarini o'rganish;

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida *para*-[*bis*-1,4-(4,4,4-triflorbutandion-1,3)]-benzol (PTFBDB), uning gidrazonlari, shuningdek, Mn(II), Ni(II), Cu(II) va Zn(II) ionlari bilan kompleks birikmalari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** yangi ftorli tetrakarbonil birikma tuzilishi, uning gidrazonli hosilalari sintezi, tautomeriyasi va kompleks hosil qilishi, kvant-kimyoviy tadqiqoti olingan ligand va komplekslarning kimyoviy va biologik xossalari tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida element, termik tahlil (TGA, DTA, DSC), RTT, fizik konstantalarni aniqlash, KKH yordamida molekulaning tuzilishi va zaryad taqsimoti (ChemOffice, Gaussian16) UB-, IQ-, raman-, YaMR <sup>1</sup>H-, EPR spektroskopiya usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor PTFBDB va uning atsetil-, benzoil- va *m*-gidroksibenzoilgidrazonlari va tiosemikarbazoni sintez qilingan;

olingan 4 ta ligand asosida Mn(II), Ni(II), Cu(II) va Zn(II) ionlarning 16 gomobiyadroli va 4 ta geterobiyadroli kompleks birikmalari sintez qilingan;

kvant-kimyoviy usullarning takomillashtirilgan dasturlaridan foydalanib, sintez qilingan ligandlar va ularning komplekslari molekularning geometrik va energetik parametrlari, atomlardagi zaryadlarning taqsimoti, reaksiyon markazlari aniqlangan;

yangi sintez qilingan ftorli tetraketonning gidrazonlari olinib, ular asosida sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, UB-, IQ-, YaMR  $^1\text{H}$ -, EPR spektroskopiyasi usullari yordamida isbotlangan;

sintez qilingan organik moddalar polidentat ligandlar sifatida sanoat korxonalarining chiqayotgan oqova suvlar tarkibidagi og'ir metallar ( $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ) ionlarini tanlab cho'ktirib ajratish, ularni sifat va miqdor analizida qo'llash usuli yaratilgan;

sintez qilingan yangi ligandlarning  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$  va  $\text{Zn}^{2+}$  ionlari bilan kompleks birikmalarni *F. solani*, *A. alternata* o'simlik zamburug'lari rivojlanishiga qarshi fungitsidlik xossalari aniqlangan;

sintez qilingan organik moddalar - PTFBDB ( $\text{C}_{14}\text{H}_{28}\text{O}_4\text{F}_6$ ) va (E)-N'-benzilidenbenzoilgidrazid ((E)-N'-BBG) ( $\text{C}_{14}\text{H}_{12}\text{N}_2\text{O}$ ) larning monokristallari o'stirilib, ularning molekularning tuzilishi RTT usuli bilan isbotlangan;

sintez qilingan moddalarning termik xossalari, termik parchalanish mexanizmi va ularning miqdoriy, energetik jihatlari hamda termodinamik kattaliklari aniqlangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ilk bor ftortutgan PTFBDB va uning asosida to'rtta yangi polidentat organik ligandlar hamda ularning Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlari bilan reaksiyasining optimal sharoitlari aniqlanib, 20 ta yangi komplekslar sintez qilingan;

sintez qilingan PTFBDB va u asosida olingan organik polidentat ligandlarning tuzilishi UB-, IQ-, YaMR  $^1\text{H}$  spektroskopiyasi, RTT, kvant-kimyoviy usullar bilan aniqlangan;

sanoat korxonalaridan chiqayotgan oqova suvlar tarkibidagi og'ir metallar ( $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$ ,  $\text{Zn}^{2+}$ ) ionlarini tanlab cho'ktirib ajratish, ularning sifat va miqdoriy analizida foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** UB-, IQ-, YaMR  $^1\text{H}$ - EPR spektroskopiya, RTT usuli, KKH (ChemOffice, Gaussian16), termik, biologik va boshqa tadqiqot usullari yordamida olingan natijalarning ishonchliligi va yuqori aniqlik darajasida tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) atsetatlari bilan PTFBDB gidrazonlari va ularning kompleks birikmalarini sintezining yangi usuli yaratildi, olingan kompleks birikmalar tarkibi, tuzilishi va xossalari, zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida o'rganish natijasida isbotlanib, yangi spektral va strukturaviy ma'lumotlarning olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati PTFBDB gidrazonlari olish usuli ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosida Mn(II), Ni(II), Cu(II) va Zn(II) ionlari bilan kompleksni birikmalar sintezi amalga oshirilgan. Sintez qilishning optimal usuli yaratilgan. Sintez qilingan moddalarni o'rganish, olingan spektral va strukturaviy ma'lumotlar "tarkib-tuzilish-xossa" munosabatlarning mavjudligini ko'rsatdi hamda ligandlar metallurgiya va kimyo sanoati oqova suvlari tarkibidagi metall ionlarini tanlab cho'ktirishi, sifat va miqdor analizida regioselektiv reagentlar

sifatida qo'llanilishi, kompleks birikmalardan o'simliklar zamburug' kasalliklariga qarshi vositalar sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlarining ftorli tetraketon hosilalari bilan kompleks birikmalari sintezi, tuzilishi, xossalari aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*Para-[bis-1,4-(4,4,4-triflorbutandion-1,3)]-benzol* (C<sub>14</sub>H<sub>28</sub>O<sub>4</sub>F<sub>6</sub>)ning rentgen tuzilish tahlili natijalari Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilgan (CCDC 1045842). Natijada, bazaga kiritilgan kimyoviy birikmalar o'xshash birikmalarni sintez qilish va tuzilishini tavsiflashda taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanish imkonini bergan;

tarkibida N,O<sub>2</sub> va N,O,S donor atomlar tutgan *bis*-tridentat, kuchli xelatlovchi tabiatga ega ligandlar "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJda amaliyotga joriy etilgan (Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJning 2023-yil 4-oktabrdagi №23/01-01-07/490-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oqova suv tarkibidagi Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II), Cd(II) ionlarini tanlab cho'ktirish, ularning sifat va miqdor tarkibini aniqlash uchun analitik reagent sifatida tavsiya etish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 5 ta respublika anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy maqolalar chop ettirilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, 182 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad, vazifalari, ob'yektlari va predmetlari tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari borasida xulosa qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ayrim 3d-metallarning ftorli β-diketonlar gidrazonlari bilan kompleks birikmalari**" nomli birinchi bobida (adabiyotlar tahlili), ushbu mavzudagi xorijiy va mahalliy adabiyotlar ma'lumotlari umumlashtirilgan va olingan natijalar asosida muhim ilmiy xulosalar chiqarilgan. Ularning tahlili natijasida ishning maqsadi, vazifalari va dolzarbligi asoslangan.


**Ikkinchi bob "Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlarining ftorli tetraketon hosilalari bilan kompleks birikmalari sintezi"** deb nomlangan. Unda olingan

birikmalarning sintezi va tuzilishini aniqlashning element tahlili, IQ-, YaMR  $^1\text{H}$ -, raman-, EPR spektroskopiya hamda KKH usullari keltirilgan.

**Uchinchi bob “Ftorli tetraketon hosilalarining Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) bilan kompleks birikmalari tuzilishi va xossalari”** deb nomlangan. Bu bob olingan natijalar muhokamasiga bag‘ishlangan. PTFBDB ning atsil-, tioatsil-, aroilgidrazonlari, hamda ularning Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlari bilan kompleks birikmalari tuzilishi tadqiqotning fizik-kimyoviy va KKH usullaridan foydalanib isbotlangan. Sintez qilingan moddalarning qishloq xo‘jaligi patogen mikroorganizmlarga qarshi ta’siri va organik ligandlarning kimyoviy sanoat oqova suvlari sifat va miqdor analizida ishlatish bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

### 1. PTFBDB ning sintezi, tuzilishi va tautomeriyasi


Bugungi kunda tarkibida ftortutgan organik birikmalar sintezi jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ftortutgan tetrakarbonil birikmalarning sintezi, yangi ligandlar olish va kompleks birikmalar tadqiqoti uchun keng yo‘l ochadi. Ma’lumki, karbonil birikmalar sintezi odatda Klyayzen kondensatlanishi orqali amalga oshiriladi, ammo bu jarayon absolyut etil spirti muhitida olib borilishi bilan birmuncha qiyinchilik tug‘diradi va uzoq vaqt talab etadi. Bundan tashqari reaksiya natriy metilati yoki natriy etilati ishtirokidagina amalga oshadi, hamda reaksiya unumi ancha past bo‘ladi. Bizning modifikatsiyalangan usulimiz Klyayzen kondensatlanishidan farqli ravishda *para*-diatsetilbenzolni triftorsirka kislota etil efiri bilan geksan muhitida litiy gidridi katalizatorligida xona haroratida o‘zaro 1:2 mol nisbatda ta’siri bilan amalga oshirildi. Olingan yangi modda etanoldagi eritmasida 3 xil tautomer shakllarda bo‘lishi mumkin. Bular *bis*-diketon (A), *bis*-1,1'-yenol-3,3'-keto (B) va *bis*-1,1'-keto-3,3'-yenol (C) tautomer shakllardir (1-sxema):




1-sxema

PTFBDB molekulasiining IQ spektrida quyidagi tebranish chastotalari qayd etildi: C-H bog‘ining valent tebranish chastotasi  $\nu_{(\text{C-H})}=3124\text{ cm}^{-1}$ , yenol fragmentidagi C-O bog‘ining valent tebranishlari  $\nu_{(\text{C-O})}=1260\text{ cm}^{-1}$ , karbonil guruhiga xos  $\nu_{(\text{C=O})}=1558\text{ cm}^{-1}$  sohadagi tebranish chastotalari  $\text{CF}_3$  ga qo‘shni bo‘lgan karbonil guruhining borligidan dalolat beradi. Yenol fragmentidagi O-H bog‘larining deformatsion tebranish  $\delta_{(\text{O-H})}=750\text{ cm}^{-1}$  sohada qayd etildi. Aromatik halqaga qo‘shni (C=C) bog‘ining valent tebranishlari  $1625\text{ cm}^{-1}$  va  $\nu_{\text{C=Car}} 1450\text{ cm}^{-1}$

<sup>1</sup> sohalarda kuzatildi. O`rtacha va kuchli intensivlikda C-F bog`larga tegishli 1236-1230, 1130-1120, 1060-1040 cm<sup>-1</sup> sohalarda  $\nu_s$  va  $\nu_{as}$  valent tebranishlar,  $\delta_{(C-F)}$  550-530 cm<sup>-1</sup> sohalarda esa deformatsion tebranishlar qayd etildi. Gaussian16 dasturi yordamida qayd etilgan nazariy IQ va raman spektr ma`lumotlari amaliy spektrlar bilan solishtirilganda PTFBDB molekulasida *bis*-1,1'-yenol-3,3'-keto (B) tautomer holatda (1, 2-rasm) bo`lishi o`z isbotini topdi.



1-rasm. PTFBDB ning nazariy-(a) va amaliy-(b) IQ spektri.




2-rasm. PTFBDB ning nazariy-(a, b) va amaliy (c) raman spektri.

PTFBDB molekulasida elektron bulut zichligi va molekulaning atomlaridagi zaryadlar taqsimotini o`rganish maqsadida zamonaviy kompyuter dasturlar yordamida kvant-kimyoviy hisoblashlar o`kazildi. PTFBDB molekulasining yenollashgan karbonil guruhi kislorod va vodorod atomlarining konformatsion holatlari o`rtasidagi protomer muvozanati o`rganildi. Har bir konformatsion holat uchun molekulaning gaz va suyuq fazalarda  $\Delta H$  va  $\Delta G$  qiymatlari hisoblab chiqildi. Shunga ko`ra, protomerlarning barqarorligi aniqlandi va molekulaning gaz fazadagi konformerlarining bog` uzunliklari hisoblandi hamda nazariy jihatdan IQ va raman spektrlari olinib, amaliy spektrlar bilan qiyoslandi. Qiyoslash natijalariga ko`ra ftorli tetrakarbonil birikma eritmada *bis*-1,1'-yenol-3,3'-keto tautomer shaklda mavjud ekanligi isbotlandi.

PTFBDB ning CD<sub>3</sub>OD eritmasidan olingan YaMR <sup>1</sup>H (3-rasm) spektrining  $\delta$  8,091 m.h. maydonidagi signallar aromatik halqadagi protonlarga taalluqli bo`lib, unga nisbatan kuchliroq maydonda ( $\delta$  3,317 m.h.) 2 ta H ga teng intensivlikdagi singlet signal qayd qilindi. Bu signal yenollashgan  $\beta$ -diketon fragmentidagi vinil protonlariga to`g`ri keladi. O`rganayotgan moddamiz YaMR <sup>1</sup>H spektrining  $\delta$  4,875 m.h. maydonidagi umumiy intensivligi 2 ta H ga mos keluvchi singlet signal yenollashgan O-H bog`ining benzol halqasi ta`sirida qutblanganligidan va uning to`liq *bis*-1,1'-yenol-3,3'-keto (B) tautomer holatda ekanligidan dalolat beradi.



yutilish sohasidan yuqori to‘lqin uzunligida batoxrom siljish namoyon bo‘ladi (4a-rasm). Bu elektron effekt ayni modda eritmasi erituvchilari tabiati o‘zgarib borishiga juda sezgir bo‘lib, EtOH (337) nm < DMFA (348) nm < CHCl<sub>3</sub> (350) nm < (352) nm CCl<sub>4</sub> qatorida erituvchi qutubliligi kamayishi bilan ortib borishi aniqlandi. DMFA eritmasidan tashqari boshqa erituvchilarda spektr qisman to‘lqinsimon tarzda olingan. Agar solvatoxrom siljish DDE qutblilik funksiyasiga nisbatan  $\Delta f(n^2) = f(n_{eritma}^2) - f(n_{CCl_4}^2)$  bo‘lsa, (bu yerda  $f(x) = \frac{x-1}{2x+1}$ ) va  $n^2$  nur sinishining ( $T_{xona}$ ) ko‘rsatgichi bo‘lib, chiziqli izchillik kuzatildi. HOMO-LUMO tabiatiga ega va induktiv effektlar ustun bo‘lgan kvadrupol momentining pasayishi bilan gipsoxrom siljish sodir bo‘ladi. Kvadrupol momentning o‘zgarishi tajribalardan aniqlangan va uning nazariy hisoblangan qiymati bilan mos keldi (5-rasm).




5-rasm. PTFBDB ning UB spektri va HOMO-LUMO orbitallari.

## 2. $H_4L^1$ - $H_4L^4$ ligandlarning tuzilishi va tautomeriyasi


PTFBDB ning atsetilgidrazid bilan kondensatlanishi natijasida olingan atsetilgidrazon ( $H_4L^1$ ) tuzilishi va xossalari IQ spektroskopiya usulida o‘rganish uchun dastlabki tetrakarbonil birikma IQ spektri bilan solishtirildi. PTFBDB molekulasining IQ spektrida yenol fragmentidagi uglerod kislorod bog‘ining valent tebranishlari  $\nu_{(C-O)}$  2160  $cm^{-1}$  kuzatilgan edi.  $H_4L^1$  ning IQ spektrida bu tebranishlar o‘rniga,  $\nu_{(N-H)}$  bog‘iga xos bo‘lgan valent tebranishlar 3438  $cm^{-1}$  da, yengidrazin fragmentning N–H bog‘iga tegishli bo‘lgan simmetrik valent tebranish chiziqlari 3267  $cm^{-1}$  sohada paydo bo‘ldi. 1590-1645  $cm^{-1}$  sohasida tebranish karbonil guruhi  $\nu_{as}(C=O)$  ga xos bo‘lib,  $\nu_{(C=N)}$  1456  $cm^{-1}$ , boshqa bog‘lanishlarga xos valent tebranishlar  $\nu_{(C-N)}$  1273-1342  $cm^{-1}$ ,  $\nu_{(C-C)}$  1168  $cm^{-1}$ ,  $\nu_{(N-N)}$  1076  $cm^{-1}$ ,  $\nu_{(C-F)}$  1000-1030  $cm^{-1}$  sohalarda qayd etildi.

PTFBDB tiosemikarazonining ( $H_4L^2$ ) IQ spektrida asosiy valent tebranishlar adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra tahlil qilindi (5-rasm). Olingan modda zarg‘aldoq rangli, etil spirtida yaxshi eriydi. Bu polifunksional modda turli tautomer

o'zgarishlarga moyil, *bis*-gidrazon ( $2E,2'E$ ), *bis*-yengidrazin ( $2Z,2'Z$ ), *bis*-5-oksipirazolin ( $2Z,2'E$ ) tautomer shakllarda mavjud bo'lishi mumkin (2-sxema):




$H_4L^2$  ning IQ spektrida  $1558\text{ cm}^{-1}$  sohadagi  $\nu_{(C=O)}$  tebranish chastotasi  $CF_3$  ga qo'shni bo'lgan erkin  $C=O$  guruhning borligini isbotlaydi. Spekrda N-H bog'ining valent tebranishlari  $\nu_{(N-H)}$   $3440\text{ cm}^{-1}$ ,  $3267\text{ cm}^{-1}$  sohada esa yengidrazin fragmentning N-H bog'iga tegishli  $\nu_s$ ,  $\nu_{as}$  tebranish chiziqlari namoyon bo'ldi.  $1590-1645\text{ cm}^{-1}$ ,  $C=N$  guruhining valent tebranishlari  $1456\text{ cm}^{-1}$ ,  $\nu_{(C-N)}$   $1273-1342\text{ cm}^{-1}$ ,  $\nu_{(C-C)}$   $1168\text{ cm}^{-1}$ ,  $\nu_{(N-N)}$   $1076\text{ cm}^{-1}$ ,  $\nu_{(C-F)}$   $1000-1030\text{ cm}^{-1}$ ,  $\nu_{(C-S)}$   $840\text{ cm}^{-1}$  sohalarda simmetrik va antisimmetrik ( $\nu_s$  va  $\nu_{as}$ ) valent, deformatsion tebranishlar signallari ( $\delta_w$ )  $738-603\text{ cm}^{-1}$  sohada qayd etildi (6-rasm). Bu ma'lumotlar  $H_4L^2$  ligandning yengidrazin tautomer shaklda ekanligini tasdiqlaydi.



6-rasm.  $H_4L^2$  ning IQ spektri.


PTFBDB ning benzoil gidrazid va *m*-oksibenzoilgidrazid bilan hosil qilgan aroil gidrazonlarida *bis*-gidrazin tautomer shaklning nisbatan beqarorligi tufayli parchalinishi sodir bo'lishi RTT usuli bilan isbotlandi (7-rasm). Qattiq holatda esa yengidrazin tautomer shakl barqarorligi isbotlandi.



7-rasm. (E)-N'-benzilidenbenzoilgidrazid ( $C_{14}H_{12}N_2O$ ) molekulasining tuzilish formulasi.

### 3. Kompleks birikmalarning olinishi va tuzilishi


Yangidan sintez qilingan ftorli tetraketon va uning funksional guruhlarida N,O,S atomlari tutgan kuchli kompleks hosil qiluvchi gidrazonli hosilasining elektron konfiguratsiyalari  $3d^5-3d^{10}$  tartibida to'lib boruvchi Ni(II), Cu(II), Zn(II), Mn(II) ionlar bilan kompleks birikmalari sintez qilindi hamda ularning tarkibi, tuzilishi, xossalari, tadqiq etildi. Shunga asosan  $H_4L^1-H_4L^4$  ligandning Ni(II), Cu(II), Zn(II) va Mn(II) ionlari bilan 1:2 nisbatda o'zaro ta'sirlashishi natijasida gomobiyadroli kompleks birikmalar sintez qilindi. Reaksiya uchun metall atsetatlarning suv-ammiakli eritmasi ishlatildi va natijada yangi turli rangli moddalar olindi. Kimyoviy elementlar tahlili natijalari asosida ular  $Ni_2L \cdot 2NH_3$ ,  $Cu_2L \cdot 2NH_3$ ,  $Zn_2L \cdot 2NH_3$ ,  $Mn_2L \cdot 6NH_3$  tarkibli kompleks birikmalar ekanligi aniqlandi (3-sxema).



3-sxema

$H_4L^2$  asosida sintez qilingan  $Zn_2L^2 \cdot 2NH_3$  kompleks birikmasining IQ spektrida  $609-536 \text{ cm}^{-1}$  sohada Zn-N va Zn-O bog'lariga xos valent tebranishlar chastotalari qayd etilgan, kompleks hosil bo'lishida liganddagi N, S va O atomlarining koordinatsiga uchraganiligini va to'rt karra deprotonlangan bis-tridentat ligand har bir markaziy ionning 3 ta o'rini band etganligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda,  $3404-3342 \text{ cm}^{-1}$  sohadagi valent tebranishlar koordinatsion bog'langan  $NH_3$  molekulasiga tegishli bo'lib,  $Zn^{2+}$  ionining to'rt koordinatsion sonli ekanligi va yuqorida IQ spektr ma'lumotlariga asoslanib, hosil bo'lgan kompleksda markaziy ion qurshovi tekis-kvadrat tuzilishini tasdiqlaydi. Ruxli kompleks birikmalarning IQ


spektri ko‘p jihatdan Ni(II) ning komplekslari IQ spektrlariga mos tushadi. Ammo shuni ham qayd etish kerakki, Ni(II) ionidan farqli ravishda kompleks hosil qiluvchi rux(II) ioni koordinatsion “yumshoq”ligi bilan ajralib turadi (7-rasm).



8-rasm.  $Zn_2L^1 \cdot 2NH_3$  (a) va  $Mn_2L^3 \cdot 6NH_3$  (b) larning IQ spektrlari.

#### 4. Ni(II) va Zn(II) kompleks birikmalarining tuzilishini YaMR $^1H$ spektroskopiya usulida tadqiq etish

Yuqoridagi IQ spektroskopiya ma’lumotlari asosidagi xulosalarni tasdiqlash maqsadida Ni(II) va Zn(II) komplekslarini YaMR  $^1H$  spektroskopiya usuli bilan o‘rganildi. Bunda Ni(II) va Zn(II) ionlarining diamagnit xossaga ega va metanol, xloroform, toluol kabi organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Ularning bu xossalari kompleks birikmalar tarkibidagi vodorod atomlarni YaMR  $^1H$  spektroskopiya usuli bilan o‘rganish uchun juda mosligi hisobga olindi.  $Ni_2L^1 \cdot 2NH_3$  kompleks birikmasining YaMR  $^1H$  spektrida loordinatsion bog‘langan ammiak molekulasiga xos bo‘lgan signallar 1,87 m.da, gidrazod fragmentining  $CH_3$  guruhining intensivligi 6 H ga teng singlet signal  $\delta$  2,24 m.h. maydonida, 5.6 m.h. dagi singlet signal Ni(II) kompleks birikmasining olti a‘zoli metallxelatidagi vinil protonlariga tegishlidir. Fenil guruhi protonlari signallari 7 m.h. da qayd qilindi (9-rasm).



9-rasm.  $Ni_2L^3 \cdot 2NH_3$  kompleks birikmasining  $CD_3OD$  eritmasidagi YaMR  $^1H$  spektri.

*Para* holatda o‘rinbosar tutgan aromatik halqaning to‘rtta protonlari  $\delta$  7,12-7,20 m.h. maydonida SSTK 9-10 Hz qiymatli dublet signallar sifatida rezonanslashadi.  $Ni_2L^3 \cdot 2NH_3$  kompleks birikmasining YaMR  $^1H$  spektri  $Ni_2L^1 \cdot 2NH_3$  spektridan qisman farq qiladi. Buning asosiy sababi  $Ni_2L^1 \cdot 2NH_3$  ligand  $CH_3$  radikalining fenil va *m*-oksifenil radikallariga almashishidir. Ammo psevdoaromatik metallhalqa vinil va *para*- almashingan aromatik halqaning protonlari signallari deyarli o‘zgarishsiz qoladi.

Gomobiyadroli nikelli komplekslarda ligandlar tarkibida fenil radikalini paydo bo‘lishi, koordinatsiyalangan ammiak signallari kimyoviy siljishi kuchsiz maydon

tomonga sezilarli (0,65-0,75 m.h.) siljishi kuzatildi. Shuningdek,  $Ni_2L^3 \cdot 2NH_3$  dan  $Ni_2L^4 \cdot 2NH_3$  ga o'tganda fenil radikali kimyoviy siljishi 0,26 m.h. yuqori maydon tomon siljigan Zn(II) komplekslarida bunday o'zgarish kuzatilmadi. Zn(II) komplekslarida aromatik  $-C_6H_4-$  radikal protonlarining signallari ikki xil rezonanslashib, 1-signalning kimyoviy siljishi  $L^1-L^4$  qatorida ortib borishi, 2-signal kimyoviy siljishlari betartib o'zgarib borishi bilan farqlanadi. Bu kompleks hosil qiluvchi ligandlarning fazoviy tuzilishi va sterik hajmi va markaziy ionning konfiguratsiyasi bilan bog'liq hisoblanadi.

1-jadval


Umumiy tarkiblari  $Ni_2L^1 \cdot 2NH_3$  -  $Ni_2L^4 \cdot 2NH_3$  va  $Zn_2L^1 \cdot 2NH_3$  -  $Zn_2L^4 \cdot 2NH_3$  bo'lgan kompleks birikmalarining  $CD_3OD$  eritmasidagi YaMR  $^1H$  spektrlari parametrlari ( $\delta$ , m.h.)

№	Birikma formulasi	=CH-	NH <sub>3</sub>	-C <sub>6</sub> H <sub>4</sub>	-CH <sub>3</sub>	-C <sub>6</sub> H <sub>5</sub>	O-H
1	$Ni_2L^1 \cdot 2NH_3$	5,67	1,17	7,14	2,24		-
2	$Ni_2L^2 \cdot 2NH_3$	5,72	1,18	7,16	-		-
3	$Ni_2L^3 \cdot 2NH_3$	5,65	1,87	7,18	-	7,58	-
4	$Ni_2L^4 \cdot 2NH_3$	5,60	1,92	7,15	-	7,84	8,28
5	$Zn_2L^1 \cdot 2NH_3$	5,52	1,12	7,02; 7,43	2,20		-
6	$Zn_2L^2 \cdot 2NH_3$	5,48	1,15	7,12; 7,16	-		-
7	$Zn_2L^3 \cdot 2NH_3$	5,46	1,14	7,13; 7,25	-		-
8	$Zn_2L^4 \cdot 2NH_3$	5,62	1,16	7,17; 7,23	-	7,82	8,40

### 5. $Mn^{2+}$ va $Cu^{2+}$ ionlarining gomobiyadroligi, Ni(II) va Cu(II) ionlarining geterobiyadroligi kompleks birikmalarining EPR spektrlari

Gomobiyadroligi kompleks birikmalarining sintezi tegishli  $L^1-L^4$  ligandlar bilan oraliq metallar atsetatlari ammiakli eritmalarining 1:2 molyar nisbatdagi, geterobiyadroligi kompleks birikmalar esa ligand va metall atsetatlarining 1:1:1 nisbatdagi o'zaro ta'siri bilan hamda  $Ni_2L^2 \cdot 2NH_3$  va  $Cu_2L^2 \cdot 2NH_3$  komplekslarini ekvimolyar miqdorlarda aralashtirish orqali amalga oshirildi. Paramagnit xossali Mn(II), Cu(II) ionlarining  $H_4L^1-H_4L^4$  qatori ligandlari bilan kompleks birikmalarining polikristallarning xloroformdagi va boshqa erituvchilardagi eritmaları xona haroratida va azotning qaynash haroratidagi ( $-196^\circ C$ ) muzlatilgan namunalari EPR spektrlari olindi (10a-b-rasm). Gomobiyadroligi Cu(II) kompleks birikmalarining EPR spektrlarida paramagnit markazlarning o'zaro elektron almashinuvi natijasida yettita liniyadan iborat O'NS va QO'NS liniyalari qayd etildi (10 a-rasm).


Paramagnit va diamagnit ionlar tutgan qo'sh yadroligi komplekslarning eritmada va qattiq holatda EPR spektrlari o'rganilganda monoyadroligi  $Cu^{2+}(3d^9)$  ioni komplekslariga xos spektrlar qayd etildi.



10-rasm.  $\text{Cu}_2\text{L}^2 \cdot 2\text{NH}_3$  ning metanoldagi (a),  $\text{NiCuL}^1 \cdot 2\text{NH}_3$  ning xloroformdagi (b) eritmasining EPR spektrlari.

$\text{NiCuL}^2 \cdot 2\text{NH}_3$  geterobiyadroli kompleks birikmasining EPR spektrida QO‘NS chiziqlari aniq ajralmaydi, buning asosiy sababi markaziy atom *trans*- $\text{N}_2\text{O}_2$  koordinatsion qurshovga ega ekanligidir. Bu spektrlarning parametrlari  $g=2,057$ ;  $\alpha^2=0,819$  bo‘lib, komplekslarda paramagnit markaziy ion  $[\text{N}_2\text{OS}]$  va *trans*- $[\text{N}_2\text{O}_2]$  tarkibli koordinatsion qurshov hosil qilishidan va markaziy ion  $\text{Cu}(\text{II})$  ning  $dsp^2$  gibridlanganligidan hamda molekulaning tekis-kvadrat tuzilishidan dalolat beradi. Aynan shunday tarkibli koordinatsion qurshov Ni-Cu-geterobiyadroli komplekslarda ham mavjud.

$\text{Mn}_2\text{L}^1 \cdot 6\text{NH}_3$  kompleksining polikristallaridan (11a-rasm)  $34,5^\circ\text{C}$  da, metanoldagi eritmasidan (11b-rasm)  $35,4^\circ\text{C}$  da EPR spektrlar olindi,  $g$ -faktor qiymatlari esa mos ravishda: 2,08; 1,98 ga teng. Bu ion uchun  $5/2$ ,  $3/2$ ,  $1/2$  spin holatlari xos bo‘lib, ulardan dastlabki ikki holatga to‘g‘ri keluvchi spektrlar past intensivlikka ega.  $\text{Mn}(\text{II})$  ionining EPR spektri  $1/2$  spin holatida oltita ekvidistant chiziqlardan iborat bo‘ladi. Kompleksning oktaedrik tuzilishli bo‘lib,  $\text{Mn}_2\text{L}_1 \cdot 6\text{NH}_3$  birikmada  $\text{Mn}(\text{II})$   $3d^5$  elektron konfiguratsiyaga ega. Bu  $L=0$  bo‘lgan ionning S holati deb ataladi. Bu holatdagi  $g$ -faktorning qiymati 2,003 ga teng.  $\text{Mn}_2\text{L}^1 \cdot 6\text{NH}_3$  birikmasining EPR spektri yarim maydonda “ta’qiqlangan o‘tish”ni ko‘rsatadi. Agar spini  $S \geq 1$  bo‘lgan ion simmetriyasi kubdan pastroq muhitda bo‘lsa, x o‘qda elektron spinining proyeksiyalari har xil bo‘lgan holatlar kuzatiladi, tashqi maydon bo‘lmagan taqdirda ham ular har xil energiyaga ega. Ushbu dastlabki bo‘linish yagona ion deyiladi va nozik o‘zaro ta’sir tenzori bilan tavsiflanadi va “ta’qiqlangan o‘tish”ning paydo bo‘lishiga olib keladi.



11-rasm.  $\text{Mn}_2\text{L}^1 \cdot 6\text{NH}_3$  ning polikristali va metanoldagi eritmasining EPR spektrlari.

## **6. PTFBDB, uning gidrazonlari va ularning kompleks birikmalarining termik xossalari**

PTFBDB polikristali namunasidan 3,85 mg olinib TGA, DTA, DSC analizlari o'tkazildi. TGA analizida qizdirish jarayoni boshlangandan 0,17 min o'tiganda harorat 26,72 °C ga yetib, bu vaqtda modda massasi o'zgarishsiz qoldi. 12,02 minutdan keyingi harorat 136,84 °C da yutilgan suv va gazlarning desobsiyasi tufayli massa 0,096 mg (2,494%) ga kamayishi kuzatildi. 38,31 mindan so'ng harorat 397 °C ga yetdi va moddada sezilarli massa kamayishi yuz berdi va 2,939 mg (76,338%) massa kamaydi, keying bosqichda harorat 801 °C ga yetkazildi va modda 100% parchalanib ketdi. TGA bilan bir vaqtda DTA, DSC o'tkazildi. DTA jarayonida ekzo- va endoeffekt kuzatildi. Shuningdek ligand va uning asosida olingan kompleks birikmlarning ham termik tahlili o'tkazildi. Olingan natijalar asosida shuni aytish kerakki, Irving-Vilyams qatori qonuniyatlariga mos holda Cu>Ni qatorida moddalarning temik barqarorligi ortdi. Chugayevning halqalar qoidasiga asosan barcha kompleks birikmalarda besh olti a'zoli metalxelatlar mavjudligi sababli ular barqaror va barqarorlik Mn(II)<Ni(II)<Zn(II)<Cu(II) qatorida ortib boradi.

## **7. Sintez qilingan organik ligandlarning qo'llanilishi**

Maxsus shifrlangan TBG-1, TTK-2, ATG-3, TMBT-4 yangi sintez qilingan moddalar NKMK AJ markaziy ilmiy tadqiqot laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi. Kombinatning texnologik jarayonlarda hosil bo'ladigan oqava suvlari tarkibida Mn(II), Ni(II), Cu(II), Pb(II), Cd(II), Zn(II) kabi ko'pchilik d-metall ionlari mavjud. Tavsiya qilingan organik ligandlarning (TBG-1, TTK-2, ATG-3, TMBT-4) Mn(II), Ni(II), Cu(II), Pb(II), Cd(II), Zn(II) ionlariga nisbatan yuqori reaksiya qobiliyati va regiosellektivligi aniqlandi. Ajratib olingan cho'kmalarning barqarorligiga muhit pH ining ta'siri o'rganilganda konsentrlangan mineral kislotalar ta'sirida cho'kma erishi aniqlandi, ligandlarni osonlik bilan ajratib olish va qayta ishlatish imkoni paydo bo'ldi. NKMK AJ ning texnologik jarayonlarida hosil bo'lgan oqova suvlar tarkibidagi og'ir metall ionlarini cho'ktirish orqali ajratib olish, shuningdek sifat va miqdoriy analizida qo'llash uchun tavsiya etildi.

## **8. PTFBDB atsetilgidrazoni hamda Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlari bilan kompleks birikmalarining biofaolligi**

Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlari H<sub>4</sub>L<sup>1</sup> bilan hosil qilgan kompleks birikmalari namunalari qattiq "Chapek" ozuqa muhitlarida patogen mikroorganizmlarga qarshi agarli o'yiqcha usuli bilan ekildi. Shartli patogen mikroskopik zamburug'lar *F.solani* va *A.alternata* shtammiga nisbatan qarshi ta'siri tekshirildi. Natijada faqat Cu(II) ionlarini saqlagan kompleks birikmalarda yuqori biofaollk kuzatildi.

## XULOSALAR

1. Ilk bor PTFBDB va uning asosida 4 ta yangi organik *bis*-tridentat ligandlarining olinish usullari ishlab chiqildi.

2. Sintez qilingan yangi *bis*-tridentat ligandlar bilan Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) atsetatlarining 1:2 va 1:1:1 mol nisbatda o‘zaro ta’sirlashuvidan 16 ta gomo- va 4 ta geterobiyadroli kompleks birikmalari sintez qilindi. Ligandlar va kompleks birikmalarning tarkib va tuzilishi element tahlil, IQ-, UB-, raman, YaMR <sup>1</sup>H-, EPR spektroskopiya va RTT usullari bilan aniqlandi.

3. Sintez qilingan moddalarning bog’ uzunliklari, zaryad taqsimoti, tautomer holatlarning barqarorligi, kompleks birikmalarning fazoviy tuzilishi zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblashlar usuli bilan o‘rganildi. Olingan nazariy va amaliy ma’lumotlar asosida Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlarining hosil qilgan kompleks birikmalari tekis-kvadrat, Mn(II) komplekslarining esa oktaedrik tuzilishili isbotlandi.

4. Sintez qilingan ligandlar va ular kompleks birikmalarining o‘simliklarning shartli patogen mikroskopik zamburug‘lari *F.solani* va *A.alternata* shtammiga nisbatan qarshi ta’siri o‘rganildi va bunda Cu(II) kompleks birikmalarning yuqori biofaolligi aniqlandi.

5. Sintez qilingan organik ligandlarning suvda va organik erituvchilarda yaxshi erishidan foydalanib, sanoat korxonalarida oqava suvlari tarkibidagi og‘ir metall ionlarining tanlab cho‘ktirib ajratishda, ularning sifat va miqdor analizida qo‘llash uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.К.72.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ  
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ХУДОЯРОВА ЭЪТИБОР АХАТОВНА**

**СИНТЕЗ, СТРОЕНИЕ, СВОЙСТВА КОМПЛЕКСНЫХ СОЕДИНЕНИЙ  
ИОНОВ Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) С ПРОИЗВОДНЫМИ  
ФТОРИРОВАННЫХ ТЕТРАКЕТОНОВ**

**02.00.01 – Неорганическая химия**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара 2024

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/K616**

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz). на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

<b>Научный руководитель</b>	<b>Умаров Бако Бафоевич</b> доктор химических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Даминова Шахло Шариповна</b> доктор химических наук, профессор <b>Мардонов Уктам Мардонович</b> кандидат химических наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится « 18 » 05 2024 г. в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.К.72.01 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200117, Бухара, ул. М Икбол 11, БухГУ, Тел.: +99865 221-29-14, факс: +99865 221-26-12, e-mail: [bsu\\_info@edu.uz](mailto:bsu_info@edu.uz)).

Диссертация зарегистрирована в информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета за № 1, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (200117, Бухара, Библиотека БухГУ Тел.: +99865 221-29-14).

Автореферат диссертации разослан « 4 » 05 2024 г.  
(реестр протокола рассылки № 1 от « 4 » 05 2024 г.)



**Х.Б. Дустов**

Председатель Научного совета по присуждению ученой степени, д.т.н., профессор

**К.Г. Авезов**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученой степени, PhD, доцент

**М.Р. Амонов**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученой степени, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** При получении синтетических комплексов во всем мире основное внимание сосредоточено на проблему синтеза фторированных  $\beta$ -дикарбонильных соединений разветвленного строения, в составе которых имеются заместители различной природы и объемов. Благодаря своим свойствам большинство соединений фтора широко используются в атомной энергетике, лазерных технологиях, химической промышленности, сельском хозяйстве и медицине. В последние годы в химической технологии вместо синтеза фторорганических соединений стали разрабатываться методы и возможности создания молекул сложного строения, удобных для изучения и применения реакционной способности различных фторсодержащих полифункциональных соединений, а также важное значение имеет синтез, изучение строения и свойств фторированных полифункциональных, полидентатных лигандов.

В мире проводятся научные исследования в различных направлениях по синтезу комплексных соединений и определению их свойств. В связи с этим извлечение некоторых ионов из соединений металлов методом комплексообразования, повышение селективности лигандов в этом процессе, создание моделей молекул веществ сложного строения, встречающихся в живых организмах, изменение эффективности биоэлементов, которые являются важными задачами, стоящими перед химиками. Фторзамещенные  $\beta$ -дикетоны обладают высокими экстрагирующими свойствами, которые широко и эффективно используются в газожидкостной хроматографии.

В нашей республике значительные результаты достигаются в направлении производства новых видов материалов химической промышленности. Большое внимание уделяется внедрению научно обоснованной системы управления промышленными объектами и мерам по охране окружающей среды посредством применения инновационных технологий. Согласно Указу Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»<sup>1</sup>, тавҷуд в полной мере используя имеющиеся возможности, решаются местные важные задачи, направленные на определены дальнейшее развитие экспортного потенциала отраслей промышленности. В связи с этим получение комплексных соединений ионов различных металлов с гидразонами, создание на основе полученных комплексных соединений фунгицидов и стимуляторов роста растений имеет бесценную научную значимость для нашей Родины.

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени для реализации задач, определенных в постановлениях и указах Президента Республики Узбекистан № ПП-3983 от 25 октября 2018 года «О мерах по ускоренному развитию химической промышленности Республики

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

Узбекистан», № ПП-4265 от 3 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему реформированию и повышению инвестиционной привлекательности химической промышленности», № ПП-4805 от 12 августа 2020 года «О мерах по повышению качества непрерывного образования и результативности науки в направлениях химии и биологии», УП-60 от 28 июня 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», ПП-№ 295 от 28 июня 2022 года «О меры по расширению технологических цепочек переработки сырья меди и редких металлов» и других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

**Соответствие исследования приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники Республики Узбекистана VII «Химические технологии и нанотехнологии».

**Степень изученности проблемы.** За рубежом проводятся исследования по селективному извлечению ионов различных металлов под влиянием лигандов специфического состава и строения, каталитических и биологически активных свойств комплексов ионов металлов, таких как марганец, хром, медь, никель, цинк разработаны и продолжают в настоящее время С. Ради, Дж. Поли, Х. Окамура, Н. Хираяма, Дж. Уилсон, Дж. Альмида, Р. Реттинари, У. Ингл и др.

Российские ученые внесли значительный вклад в развитие химии координационных соединений. Сначала в Санкт-Петербурге под руководством Л.А. Чугаева развивалась химия координационных соединений. Позднее это направление развивали его преемники, И.Н. Щербаков, О.В. Конник, Л.Д. Попов. Темплатный синтез комплексов был продолжен и развит в Кишиневе д.х.н. М.Д. Ревенко. Магнетохимические исследования комплексных соединений проводились и развивались В.Т. Калининским, В.В. Мининым, А.Н. Гусевым, С.И. Левченко, М.К. Алавия, В.Ф. Шульгиным, В.И. Зеровым, В. Алексеевым, В. Салутиним, В.И. Филяковой, Я.В. Бургартон, Д.Л. Чижовым, К.И. Пашкевичом, П.А. Слепухиным, Г.Ф. Махаевой.

